



MARKAZIY OSIYODA ILK DAVLATCHILIK VA ULARNING SHAKLLANISH TARIXI (SHIMOLIY BAQTRIYANING BRONZA DAVRI SOPOLLI MADANIYATI MISOLIDA) (1991-2022-YILLARDA MAHALLIY TADQIQOTLAR MISOLIDA)

Rasulova Sevara Choriyorovna

Termiz davlat Universiteti Tarix Fakulteti II kurs magistranti

Annotasiya: *ushbu maqolada Markaziy Osiyoda ilk davlatchilik va ularning shakllanishi tarixi shimoliy Baqtriya ming bronza davri sopolli madaniyati misolida paydo bo'lishi haqida Ma'lumotlar berib o'tilgan..*

Kalit so'zlari: *bronza davri, sopol, «Avesto», arxeologlar.*

Markaziy Osiyo xalqlarining necha ming yillik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, O'zbekiston hududining janubiy mintaqalarida miloddan avvalgi II mingyillikning oxirlarida so'ngi bronza davrida shakllangan hamda bir qator zabardast arxeologlar tomonidan "Sopolli madaniyati" deb atalib ilmiy muomalaga kiritilgan madaniyat sohibkorlari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.[Asqarov, 1977] Avvalambor ushbu hudud Shimoliy Afg'oniston, Janubiy O'zbekiston hamda Janubiy Tojikiston mintaqalarini o'z ichiga olgan. Asosan Amudaryoning, chap sohillari uzra yastanib yotgan bepayon hududlar va bugungi kunda qurib qolgan Bo'stonsoy va Ulonbuloqsoy kanallari yoqasida bronza davrining qadimiy dehqonchilik vohalari bo'lgan Sopolli madaniyati shakllandi va ushbu madaniyat arxeolog olimlar tomonidan bir necha bosqichlarga bo'linib o'rganiladi. Sopolli madaniyatining majmualari ya'ni tarixiy obektlari misolida bir qancha arxeologlar tomonidan o'zbek davlatchilik tarixini yanada qadimiylashtirish uning yoshini ahamoniylar davridan bronza davriga borib taqalishini asoslab beruvchi qimmatli risolalar dunyo yuzini ko'rdi. [Shaydullayev 2000]

Markaziy Osiyo mintaqasida so'ngi bronza davri yodgorliklari Dashtli va Sopolli madaniyatining ochilishi va ular fanda o'z tasdig'ini topishi Amudaryo va Sirdaryodek azim daryolar oralig'ida ham ahamoniylar sulolasi davrigacha ham O'rta Osiyoda sinfiy munosabatlarning shakllanishi hamda aholining hukrmron qatlam va jamoaviy tarzda yashaganligi Sopolli madaniyatining obektlari sanalgan Jar'oton, Mo'lali, Ko'zali va Bo'ston aholi yashash manzilgohlari va qabristonlaridan topilgan moddiy ashyolar ham aks ettiradi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi ilk davlatchilikning qaror topishi masalasi tarixchi olimlar tomonidan uzoq tortishuv va bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Ammo Markaziy Osiyoda ilk davlatchilikning ildizlari va uning qaror topishi jarayonlari bir qator moddiy va yozma manbalar asosida o'z isbotini topib kelmoqda. Fikrimizning yorqin dalili sifati O'rta Osiyoning eng qadimgi va qimmatli manbasi "Avesto"da Baqtriya tipologiyasi "Baxdi" shaklida uchrashi va bu quyoshli mamlakatda davlat ko'rinishidagi siyosiy birlashma mavjudligi qayd etilgan.[Avesto, Videvdat 8] Baqtriya haqidagi keyingi qimmatli manba Eron ahamoniylar shoxi Doro I



buyrug'i bilan ulkan qoyatoshga o'yib yozilgan hozirgi Eronning Kirmonshox shahrida joylashgan Behistun qoyatosh yozuvlari ahamiyati yuksakdir. To'g'ri ushbu qoyatosh tasvirlarida O'rta Osiyo hududida aynan ilk davlat birlashmasi asos solinishi haqida yakdil fikrlarga keladigan xulosa qilinmasada, ammo Vohamizning xususan Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya va Qadimgi Sog'd davlatlari haqida qimmatli manbalari va bu vohalardan keltirilgan qimmatbaho toshlar, ahamoniylar davlatiga tobe sifatida Baqtriya tuyakashlarining ulug' shoxanshoxga o'lpon olib kelayotgan tasvirlari qayd etilgan.[Struve, 1968] Qadimgi Baqtriya hududida ilk davlarchilikning paydo bo'lishi va qaror topishi qadimgi yunon-rim muarrixlari tomonidan ham e'tirof etiladi. Xususan, bular jumlasiga Geradot [Stronovskovo,1972], Diodor, [Tolstov, 1938] Pompey Trog, [Pompey Trog I.] Arrian,[Arrian VI, 24] Ksenofondlar [Ksenofond I]o'zlarining o'sha davrlarida yozib qoldirgan asarlarida Qadimgi Baqtriya haqida ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi sanab o'tilgan muarrixlar Qadimgi Baqtriyaning tabiati, iqlimi, serunum voaha va vodiylari va geografik joylashuv o'rni va hattoki aholisi xususida ham so'z boradi.

XIX asrning so'ngi yillarida hamda XX asr boshlarida sovetlar tomonidan ham Markaziy Osiyo tarixini o'rganish va arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etish borasida bir necha qadamlar tashlanishi kuzatiladi. Xususan, Rtveladze, I. M. Dyankonov, [Dyankonov 1954] V.V. Bartold, [Bartold, 1915] S. P. Tolstov, [Tolstov,1948] E.E. Kuzmina, [Kuzmina,1978] I. V. Sarianidi, [Sarianidi,1972] hamda sovetlar davrida arxeologik qazishmalar olib brogan tadqiqotchilar A. A. Asqarov, T. Sh. Shirinov, A. A. Abdullayevlar tomonidan O'zbekiston mintaqasining janubiy mintaqalarida aynan Surxondaryo viloyatida bir necha arxeologik ekspeditsiyalar olib borilib Sopolli madaniyatining bir necha majmualarini ochishga muvaffaq bo'lishdi.[Asqarov,1977] A. S. Sagdullayev [Sagdullayev,1987] o'zining 1987-yildagi Qadimgi Baqtriyaning tarixi va aholisining ijtimoiy-madaniy tarixiga bag'ishlangan risolasida eng dolzarb masala sifatida Qadimgi Baqtriya davlati misolida Markaziy Osiyo hududida tashkil etilgan ilk davlat birlashmalari va ularning siyosiy tuzumi aosiyo o'rin olgan. Shimoliy Baqtriya hududida qaror topgan Sopolli madaniyati tarixshunosligiga nazar tashlar ekanmiz, o'tgan asrning 60-yillaridan toki 1991-yillargacha, shuningdek 1991-yillardan hozirgi kungacha bir necha o'nlab va hattoki yuzlab ilmiy nashrlar, maqolalar, kitoblar bosmadan chiqqanini kuzatishimiz mumkin.

Markaziy Osiyoda davlatchilik tarixi va davlat tuzilishi xususidagi ilmiy nashrlar orasida Sh. B. Shaydullayev tomonidan 2007-yilda Samarqandda akademik darajasini olish uchun yozilgan doktorlik dissertatsiyasida birinchi prezidentimiz tomonidan tarixchilar e'tiboriga havola etilgan yagona savol: O'zbek davlatchiligi tarixi qachondan boshlanadi? Qabilidagi umumiy savollariga zabardast arxeolog tomonidan aniq va yakdillik bilan javob qaytarildi. Ustoz o'zining Sopolli madaniyatining majmualariga uyushtirilgan 25 yillik arxeologik izlanishlari natijasida Sopolli madaniyatining "shox" yodgorligi deb atalmish Jarqo'ton misolida isbotlab berib, bir necha olimlarning fikrlarning ilmiy haqqoniyligini yo'qqa chiqardi. Xususan Sopolli madaniyatining



Jarqo`ton yodgorligini O`zbekiston hududidagi ilk shahr-davlat shaklidagi siyosiy tuzilma ekanligiga quyidagi asosiy 7 ta ilmiy xulosaga kelinadi. Xususan,

Birinchidan, Jarqo`ton yodgorligi topografik jihatdan Qadimgi Sharq shahr-davlatlariga monand. Uning aholisi hunarmandchilik, me`morchilik, zargarchilik, metallozlik va san`at sohasidagi erishgan yutuqlari bilan Qadimgi Sharq Shahar-davlatlari aholisi bilan bir xil rivojlanish darajasida bo`lgan.

Ikkinchidan, Jarqo`ton shahr-davlatining boshqaruvi "Jarqo`ton olov ibodatxonasi"da joylashgan. 6-tepalikda joylashgan monumental inshoot nafaqat ibodatxona, balki saroy-ibodatxona vazifasini o`tagan.

Uchinchidan, ilk davlatlarning shakllanishi bilan dinning ham markazlashuv jarayonining kechishi tabiiy holdir albatta. Jarqo`ton saroy-ibodatxonasining bunyod etilishi bu fikrning isbotidir. Shu bilan bir qatorda jamoalar sig`inib kelgan din ko`rinishlari ham saqlanib qolaveradi. Bronza davrida zoolatirik va ajdodlar ruhiga ibodat kabi din turlarining rivojlanganligi Jarqo`tondan topilga ashyoviy manbalar asosida kuzatildi.

To`rtinchidan, sivilizatsiyaning asosiy ko`rinishi bo`lgan yozuv ham Sopolli madaniyati davrida kashf etildi. Bu piktografik belgili yozuv bo`lib, Jarqo`ton sopollarida shunday belgilarning 52 ta xili kuzatilgan. Bu belgilarning tarqalish hududi ancha keng bo`lib, O`rta Osiyoning janubi, Shimoliy Afg`oniston Markaziy va Shimoliy Eron bronza davri yodgorliklarida uchraydi va biri-biriga o`xshashligi bilan xarakterlanadi.

Beshinchidan, shaxsiy mulk va davlatchilik arxeologik belgisi sifatida e`tirof etilayotgan sopolli madaniyati muxrlari birinchi marta klassifikatsiya qilindi.

Oltinchidan, sopolli madaniyati aholisi ham xalqaro aloqalarga asos slogan xalqdir. Xarappa, Qadimgi Eron va Andronova madaniyatlari bilan bevosita, Suriya, Xett, Mesopatamiya bilan bilvosita madaniy aloqada bo`lganligi yangi ashyoviy manbalar asosida isbotlab berildi.

Yettinchidan esa, sopolli madaniyati aholisi Anov-Namozgoh, Murg`ob, Dashtli, Markaziy va Shimoliy Eron aholisi bilan yagona etnik guruhni tashkil etgan xalqlardir. [Shaydullayev, 2009]

Shu o`rinda aytish lozimki, Bahodir Eshovning risolasida Sopolli madaniyatining obektlariga "qishloq" deya ta`rif berilgan bo`lib, bu madaniyatning ibtidosi neolit davrida "hisorlik" ovchilar kichik va yirik daryolar vohalarini, Boysuntog` va Ko`hitanggacha bo`lgan tog` oldi va tog`li hududlarni o`zlashtirish jarayonidan boshlaydi. Bronza davrida esa bu hududlar boshqa ko`rinishga ega bo`lgan hamda o`ziga xos xo`jalik shaklidagi yangi madaniyatlar shakllana boshlagan. Miloddan avvalgi II mingyillikning II choragida Amudaryoning o`ng qirg`og`ida, aniqrog`i uning g`arbiy qismida Sopollitepa ko`rinishidagi dastlabki mustahkam qishloqlar paydo bo`ldi. Ushbu qishloqlar bu hududlarda rivojlangan butunlay yangi ko`rinishdagi qishloqlar bo`lib, neolit davri (Hisor madaniyati) makonlaridan ajralib turadi. Muallifning xulosasiga ko`ra, Amudaryoning o`ng qirg`og`iga shakllangan Sopollitepa



bronza davridagi dastlabki o'troq dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi. Ammo keyinchalik o'troq dehqonchilik jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishi natijasida Sopollitepa o'zining ilgarigi ahamiyatini yuqota boshlaydi va abo'shab qoladi hamda asosiy markaz vazifasiga esa, tog' darasidan chiquvchi yo'l ustidagi mustahkam qal'a sifatida paydo bo'lgan Jarqo'tonga o'tadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib B. Eshov Sopolli madaniyatining majmualariga shunday tarixiy va ilmiy xulosa beradi: "Bronza davri Janubiy O'zbekiston hududlarida yashagan o'troq dehqonchilik jamoalari jamiyat taraqqiyotining yuqori pog'onasida bo'lib, ibtidoiylikning so'ngi bosqichidan sivilizatsiyasiga o'tdilar. Ushbu sivilizatsiyaning boshlanishi shahrmonand (protogorod) belgilarni o'zida aks ettirgan Sopollitepa bo'lgan bo'lsa, Jarqo'ton O'zbekiston hududlaridagi ilk shahar misoli edi." [Eshov, 2012]

Shuni ta'kidlash lozimki, Sh. B. Shaydullayevning dissertatsiyasiga qadar ham bir qator arxeologlar tomonidan o'zbek davlatchiligi tarixi va siyosiy birlashmalarning o'zgarishlariga oid ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan bular sirasiga A. A. Asqarov va T.Sh. Shirinovlar Sopolli madaniyatining aholisi tomonidan yaratilgan hunarmandchilik buyumlari, ayniqsa shaharning o'ziga xos T shaklidagi qurilishi hamda aholisining diniy sohadagi erishgan yutuqlari (bu borada mualliflarning asarlarida Jarqo'ton olov ibodatxonasi xususida keng to'xtalishga ega) inobatga olinib Jarqo'ton bu O'rta Osiyo hududidagi bronza davridagi ilk shahardir deb e'tirof etiladi. [Asqarov, Shirinov. 1993]

O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika Davlat Qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix Instituti va Inson Huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi tomonidan E.V. Rtveladze, A.X. Saidov hamda E.V. Abdullayevlar tomonidan 2001-yilda "Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar" nomli asarida mualliflar tomonidan Qadimgi O'zbekistonning davlatchiligi va huquqi tarixiga bag'ishlangan ko'pdan-ko'p qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 10 yilligiga bag'ishlangan ushbu asarda xozirgacha tarix va yuridik fanlarida yetarli darajada yoritilmagan muhim muammolar birinchi marta qarab chiqiladi, jumladan davlat va huquq institutlari, pul munosabatlari, soliq xizmati, yozuv, diplomatiya, zardushtiylik huquqining paydo bo'lishi, qaror topishi va rivojlanish masalalari yoritiladi. Kitobning ilova qismida esa O'rta Osiyoning muhim huquqiy yodgorligi sifatida "Avesto"ning "Vandidod" tarjimai birinchi marta keltirilgan. Shu jumladan ushbu asarda O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar rivojlanishining davrlarga bo'lish jarayonida Markaziy Osiyoda davlatchilik evolyutsiyasini miloddan avvalgi II mingyillikning II yarmi, miloddan avvalgi III asrgacha - yangi eraning IV asri oralig'idagi vaqtni qamrab olgan bir necha davrlarga ajratgan holda davrlashtiriladi. Davlatchilikning ilk shakli qaror topishi O'zbekiston janaubida tarqalgan so'ngi bronza davrining o'troq-dehqonchilik madaniyatida yuz beradi. Uning yakunlanishi O'rta Osiyo hududida yangi eraning birinchi yarmida mavjud bo'lgan Kushon va



Parfiya imperiyalari halokati bilan deyarli bir vaqtga to'g'ri keladi. Qang` davlati taxminan shu paytda inqirozga uchraydi. Olimlar tomonidan davlatchilik evolutsiyasining birinchi davrini miloddan avvalgi II mingyillikning II yarmi – O'zbekiston janubidagi "embryonal" shakldagi davlatga o'xshash tuzilmani qaroq topishi sifatida baholanadi. Davlatning bunday namunasi Sopolli madaniyatining Jarqo`ton misolida o`z tasdig`ini topadi. [Rtveladze, 2001]

Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'zbek davlatchiligi tarixiga qiyosiy tahlil jarayoniga nazar tashlar ekamiz, o'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchilig tarixi bilan bog`liq fikr va mulohazalar A. Sagdullayev, B. Aminov, O`. Movlonov, N. Norqulovlar muallifligida 2000-yilda nashr etilgan "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti" deb nomlangan asarning birinchi qismida o'zbek davlatchiligi ildizlari dehqonchilik vohalari bilan bog`liq holda rivojlandilar deb e'tirof etiladi. Xususan, jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik va chorvachilik paydo bo`lgan davrda shakllanadilar. Tarixdan ma'lumki eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi IV mingyillikda Ikki daryo oralig`i (Mesopatamiya) va Qadimgi Misrda paydo bo`ldi. Asta-sekin dehqonchilik bu yerda qo`shni hududlarga (Kavkazorti, Eron, O`rta Osiyo, Hindiston, Xitoyga) tarqaldi. Miloddan avvalgi III-II mingyillikda esa Qadimgi Sharq aholisi o`rtasida madaniy aloqalar mavjud edi. Mualliflar jamoasi O'zbekiston hududidagi ilk davlatchilikning boshlanishini miloddan avvalgi II mingyillik o`rtalarida Surxon vohasida qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida shakllandi [Sagdullayev 2000] deb ta'kidlaydi. Bu esa ilk davlatchilikning tamal toshi aynan sopolli madaniy obektlari asosida qo`yilganiga ishoradir.

Ushbu mavzu doirasida qiyosiy tahlilni davom ettirar rkanmiz, Azamat Ziyonong "O'zbek davlatchilik tarixi" asarida ming afsuslar bilan qayd etish lozimki, o'zbek davlatchilik tarixi miloddan avvalgi I mingyillik bilan uzil-kesil bog`lanadi. Miloddan oldingi I minyillik zamonasi uchun jadal va sermazmun siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy xalqaro munosabatlar boshi-oxiri yo`q, tizginsiz bir cheksizlikga kechganmi yoki ularni jilovlab turadigan, manfaatli ravishda tartib doirasida soluvchi tizim mavjud bo`lganmi? Muallif to`la ma`noda albatta deb javob beradi. Xususan bu tizim davlat, aynan davlatchilik tizimidir deya ta'kidlaydi. Xullas Azamat Ziyon tomonida uzil-kesil shunday xulosaga kelindi : "miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi yarmida, aniqro`gi VI asrdayoq mamlakatimizda davlatchilik asoslari uzil-kesil tarkib topgan." [Azamat Ziyon,2001]

Shunday qilib yuqoridagi bir qator arxeologlar hamda tarixchi olimlarning asarlari va ilmiy maqolalari asosida Markaziy Osiyoda davlatchilik tarixi va boshqaruv usullari xususida qiyosiy tahlilga keng o`rin berar ekanmiz, O'zbek davlatchiligi tarixi, uning ildizlari qolaversa tamal toshi miloddan avvalgi II mingyillikdayoq aynan bronza davrida asos solingan bo`lib, sopolli madaniyatining tarixiy obekti Jarqo`ton yodgorligi fikrimizning yorqin isbotidir



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Авесто», Видевдат, 8.
2. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, 1977;
3. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993
4. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. Ташкент, «Фан» 1983;
5. Арриан. Анаб. VI, 24.
6. Бартольд В.В. К истории персидского эпоса. Записки Восточного отделения Российского Археологического общества. XXII, 1915.
7. Геродот. История в девяти книгах. I, 153. (пер. Г.А. Страновского). Л., 1972.
8. Дьяконов М.М. Сложение классового общества в северной Бактрии. СА. Вып. 19, 1954.
9. Ксенофонд. Суг. I, 5, 2.
10. Кузьмина Е.Е. Бактрийский мираж и археологическая действительность. ВДИ, № 2, 1978.
11. Помпей Трог. ар. lust., I, 1,2.
12. Ртвеладзе. Э.В., А.Х. Саидов, Е.В. Абдуллаев. Кадимги Узбекистон цивилизацияси. Давлатчилик ва хукук тарихидан лавхалар. Тошкент. Адолат. 2001. С. 48.
13. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. Ташкент, «Фан», 1987.
14. Сариниди В.И. Раскопки Тилля-тепе в северном Афганистане. Вып. I. М., 1972.
15. Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. Л., 1968.
16. Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии. ВДИ, 1938 № 1; Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948.
17. Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии. ВДИ, 1938 № 1. С.183;
18. Толстов С.П. Древний Хорезм. М., 1948.
19. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари. Тарих фанлари д-ри. афтореф. Самарқанд. 2009.
20. Azamat Ziyov: O'zbek davlatchiligi tarixi. Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar. "Sharq". Toshkent-2001.
21. Eshov. B. O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. Toshkent. 2012. 27-bet.
22. Sagdullayev. A, Aminov. B, Mavlonov. O', Norqulov. N: O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. I qism. "Akademiya". Toshkent-2000.